

O`ZBEKISTONDA MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISH

Raxmonova Nilufarxon

Qo`qon Universiteti o`qituvchisi

nilufar.9121@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis mice turizmini rivojlantirish bo`yicha olib borilayotgan ishlar va uni rivojlantirish bo`yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida haqida so`z boradi va u mualliflar xulosasi bilan yakunlanadi.

**Kalit so`zlar:** Konferensiyalar, Anhor Tour, mice o`quv dasturi, ko`rgazma

O`zbekiston o`z madaniyatining tarixiy qadriyatini saqlab qolgan holda, biznesning barcha jabhalarida, jumladan, turizm ham zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga amal qilmoqda. Hozirgi vaqtda eng ommabop tendentsiyalardan biri bu rag'batlantiruvchi turizmdir. Bu ham o'rinli, chunki O'zbekistonda ham kongress turizmi, ham dam olish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlar mavjud. MICE "Uchrashuvlar, rag'batlantirishlar, konferensiyalar va ko'rgazmalar" tizimini anglatadi, u biznes sayohatlari xizmatlarining to'liq to'plamini taqdim etadi: aviachiptalar, poezd chiptalari, vizalarni qo'llab-quvvatlash, transfer, mehmonxonalarni bron qilish, jamoa qurish, qishloq sayohatlari, O'zbekistonda korporativ tadbirlarni tashkil etish. xususan, va butun dunyo. So'nggi yillarda O'zbekiston MICE -turizm industriyasi jadal o'sish va jadal rivojlanishni ko'rsatmoqda. Korporativ tadbirlarni tashkil etish kompaniyamiz faoliyatida muhim o'rin tutadi. "Anur Tour" tadbirni tashkil etishda barcha dastlabki ishlarni olib bormoqda. U turli xil geografik hududlar va mehmonxonalarni taklif etadi. U muqobil variantlarni hisoblab chiqadi va eng yaxshisini taklif qiladi. Biroq, uning xizmatlarning asosiy xususiyati har bir mijoz uchun individual maslahatdir. U korporativ transfer statistikasini tahlil qiladi; mijozlar bilan ishlash uchun eng yaxshi narx taklif qiladi.

2019-2025 yillarda O`zbekistonda konferensiya, forum, kongress, ko`rgazma, seminar va anjumanlar (MICE) turizmini rivojlantirish bo`yicha konsepsiyaga ko`ra,

2019-2025 yillarda O‘zbekistonda MICE turizmini rivojlantirish konsepsiyasi turizmning ushbu turini rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirishga erishish va turizmning mavsumiy omillarini minimallashtirish uchun zarur turistik infratuzilmani takomillashtirishga qaratilgan. Hozirgi kunda ushbu turizmda ish yuritib borayotgan kompaniyalar oz emas. Kongress-xollning mahobatli binosidalar qanday formatdagi xalqaro tadbirlarni, ilg‘or yutuqlarni hisobga olgan holda o‘tkazish uchun sharoit yaratilgan. Bu yerda ikki tomonlama uchrashuvlar va muzokaralar bilan bir qatorda yirik xalqaro sammitlarga mezbonlik qilish mumkin bo‘ladi. Ko‘plab delegatsiyalar vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari, xizmat ko‘rsatish xodimlari uchun qulayliklar yaratiladi.—deb xabar beradi O‘zbekiston Respublikasi elchixonasi. «CITY PALACE HOTEL» keng ko‘lamli shaxsiy uchrashuvlar va konferentsiya jihozlari taklif etadi. “Katta balo zali”, “SAMARQAND”, “XIVA”, “BUXORO” va “TOSHKENT” konferentsiya zallarikonferentsiya va muzokaralar o‘tkazish uchun yaxshi jihozlangan va jihozlangan. Mehmonlar soni 200 tagacha. Darvoqe, qadimgi Sharqning buyuk olimi va sofisti, Aristotelning ustasi Al-Forobiy jamoa ichidagi hamjihatlik va tashkilotchilikning yuksak ahamiyatini ta’kidlagan edi: “Bir xil fikrda bo‘lgan va bir xil hokimiyatga ishora qiluvchi odamlar guruhi. boshchiligidagi, yagona razvedka sifatida ko‘rilishi mumkin va yagona razvedka xato bo‘lishi mumkin. Ammo har xil aqllar mulohazalardan, o‘z-o‘zini nazorat qilishdan, tortishuvlardan, bahs-munozaralardan, bahs-munozaralardan, qarama-qarshi tomondan ko‘rib chiqishdan so‘ng birlashsa, boshqa aniq tamoyillar bo‘lmaydi.

Misol qilib olishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyul “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-338-sonli qaroriga muvofiq, Qo‘qon shahrida “MICE turizmni rivojlantirish” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.

Ushbu konferensiyaning Ishtirokchilar soni: 50 kishi

Joyi: Jome majmuasining konferensiya zali

Sana: 29-oktabr 2022-yil

Davomiyligi: 1 soat30 daqiqadan iborat.

Konferensiyada “MICE turizm xizmati bozorida reklama va marketingning ahamiyati”, : “MICE turizm xizmati bozorida reklama va marketingning ahamiyati”, “Ta’lim turizmi xizmatlarini rivojlantirishda xalqaro tajriba va ulardan foydalanishimkoniyatlari”(Qo‘qon universiteti misolida) “Qo‘qonda mehmonxona xo‘jaligini rivojlantirish yo‘llari, “MICE turizmni rivojlantirishda turoperatorlarning o‘rni” mavzular bo‘yicha fikr mulohazalar yuritildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasiportalida “O‘zbekistonda MICE turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi prezident qarori loyihasi joylashtirildi.Hujjat bilan “2019-2025 yillarda O‘zbekistonda konferensiya, forum, kongress, ko‘rgazma, seminar va anjumanlar (MICE) turizmini rivojlantirish bo‘yicha konsepsiya” tasdiqlanishi mumkin.O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining “O‘zbekiston kongress va ko‘rgazma” markazini tashkil etish taklifiga rozilik berilishi mumkin. MICE turizmini maqsadli vazifalari va xalqaro tajribalariga kelib chiqib, kelgusi yillarda faol ravishda qisqa muddatda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

- 1) Respublikada MICE turizmini rivojlantirish bo‘yicha strategiya va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, jumladan:turizmning mavsumiylik omilini hisobga olgan holda, xalqaro va mahalliy darajadagi tadbirlar o‘tkazish dasturini (yillik) tuzish;

O‘zbekistonda MICE turizmi tadbirlarini o‘tkazish uchun ustuvor hududlar va mamlakatlarni aniqlash;

O‘zbekiston bozoriga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish;mamlakatning hududlaridagi mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, MICE turizmi tadbirlarining yo‘nalishlarini aniqlash;

MICE turizmi uchun mamlakatning milliy brendini ishlab chiqish;

MICE turizmini rivojlantirish uchun O'zbekiston va xorijiy davlatlar tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

2) mamlakatda MICE turizmini rivojlantirish bilan bog'liq alohida davlat muassasasi (Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasiqoshida) tashkil etish. Uning vakolatiga quyidagi vazifalar kiritilishi mumkin.

- yagona (markazlashtirilgan) MICE turizmi siyosatini amalga oshirish;

- MICE turizmi jarayonida ishtirok etuvchi davlat va xususiy tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

- MICE turizmi yo'nalishi bo'yicha faoliyat yurituvchi mehmonxonalar, turoperatorlar, binolar va boshqa tashkilotlarning ro'yxatini tuzish va muntazam ravishda yangilab boorish;

- MICE turizmi tadbirlarini, shuningdek, xalqaro bozorlarda mamlakat hududlarining ijobiy qiyofasini targ'ib etish;

3) MICE turizmini rivojlantirish uchun mamlakatning hududlarida zarur infratuzilmalarni yaratish. Shu jumladan:

- 4-5 yulduzli mehmonxona va biznes-markazlarni qurish;

- bo'sh turgan binolarni MICE turizmi tadbirlarini o'tkazish uchun moslashtirish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash;

- mamlakatda MICE turizmini rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani yaratish maqsadida salohiyatli tadbirkorlarni va investorlarni jalb qilish;

- davlat va xususiy tashkilotlarning MICE turizm tadbirlarini onlayn-bronlash xizmatini yo'lga qo'yish.

4) Xalqaro kongress va konferensiya assotsiatsiyasi (International Congress and Convention Association, ICCA) bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yish va mamlakatdagi MICE turizmida ishtirok etuvchi tashkilotlarni ICCA veb-saytida ro'yxatdan o'tkazish;

5) mamlakatning MICE turizmi bo'yicha salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ'ib qilish hamda doimiy ravishda marketing tadqiqotlarini olib borish;

6) MICE turizmi sohasidagi professional kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.

Shu jumladan:

-Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi qoshidagi Turizm o'quv-konsalting markazida sertifikatlar taqdim etuvchi maxsus kurslar tashkil etish;

-ta'lim muassasalarining o'quv dasturiga MICE turizmi bo'yicha o'quv soatlarini kiritish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki MICE turizm tarmog'ining eng serdaromad yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohani rivojlantirish orqali iqtisodiyotni ham jadal rivojlanishiga ta'sir qiladi. MICE turizm orqali yirik investorlarni jalb qilish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.tourstouzbekistan.com/en/mice.html>

2. Jitendra Singh, Ravi Parkash - "MICE Tourism in India: Challenges and Opportunities!" IJRE | Vol. 03 No. 09 | September 2016

3. Dr. Chloe Lau - "Meetings, Incentives, Conventions and Exhibitions (MICE)" 2013